

## NAZAR ESHONQUL IJODIDA DINIY RIVOYATLAR IFODASI

Abdurahmonova Mohira Abdukarim qizi,

KIUT o'qituvchisi, PhD, dotsent v.b.

E-mail: [mohiraabdurahmonova1494@gmail.com](mailto:mohiraabdurahmonova1494@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18925501>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Nazar Eshonqulning "Taqiq mevasi", "Go'ro'g'li yoxud hayot suvi" asarlaridagi diniy rivoyatlarning badiiy talqini va estetik funksiyasi tahlil qilinadi. Adib ijodida Qur'on rivoyatlari, xususan, Odam Ato va Momo Havo haqidagi syujet arxitepik va ramziy qatlam sifatida namoyon bo'lishi asoslanadi. Diniy motivlar muallif tomonidan didaktik yo'sinda emas, balki zamonaviy inson ruhiyati, ma'naviy inqirozi va ekzistensial iztiroblarini ochish vositasi sifatida qayta talqin etiladi.

**Kalit so'zlar:** diniy rivoyat, intertekstual aloqa, arxetip, Odam Ato, Momo Havo, ramz, ma'naviy begonalashuv, modern nasr.

**Annotation.** This article analyzes the artistic interpretation and aesthetic function of religious narratives in the works of Nazar Eshonkul "The Fruit of Prohibition", "Gorugli or the Water of Life". It is based on the fact that the narratives of the Quran, in particular the plot about Adam and Eve, appear as an archetypal and symbolic layer in the writer's work. Religious motifs are reinterpreted by the author not in a didactic way, but as a means of revealing the modern human psyche, spiritual crisis and existential suffering.

**Keywords:** religious narrative, intertextual communication, archetype, Adam, Eve, symbol, spiritual alienation, modern prose.

**Аннотация.** В данной статье анализируется художественная интерпретация и эстетическая функция религиозных повествований в произведениях Назара Эшонкуля «Плод запрета», «Горугли, или Вода жизни». Она основана на том факте, что коранические повествования, в частности сюжет об Адаме и Еве, выступают в творчестве писателя как архетипический и символический слой. Религиозные мотивы переосмысливаются автором не в дидактическом ключе, а как средство раскрытия современной человеческой психики, духовного кризиса и экзистенциальных страданий.

**Ключевые слова:** религиозное повествование, интертекстуальная коммуникация, архетип, Адам, Ева, символ, духовное отчуждение, современная проза.

**Kirish.** XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o'zbek adabiyotida diniy-mifologik qatlamga murojaat qilish jarayoni kuchaydi. Bu hol milliy tafakkurning yangilanishi, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlarni qayta anglash ehtiyoji bilan bog'liqdir. Nazar Eshonqul ana shu jarayonning muhim namoyondalaridan biri sifatida diniy rivoyatlarni zamonaviy estetik tafakkur bilan uyg'unlashtirgan yozuvchidir.

**Adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy o'zbek romanlari sinkretizmida Qur'oni karimda keluvchi hodisalar, jumladan, jannat hayoti, bashariyat vakillarining yaratilishi, Hobil va Qobil qissasi, Nuh alayhissalom to'foni haqidagi kabi voqealar va ularning miflashgan talqinlarida mujassamlashgan ilohiy ibrat birlamchi manba vazifasini bajarmoqda. Xususan, Nazar Eshonqulning "Taqiq mevasi" nomli ikki novelladan iborat (1. Havo; 2. Malak Hol) romani mavjud diniy syujetga asoslanadi. Romanda Odam Ato va Momo Havoning jannatdan yerga tushirilishiga sabab bo'lgan hodisa – Iblis aldoviga uchib

Momo Havoning taqiqlangan mevani yeyishi bugungi inson taqdiri bilan bog‘liq tasvirlanadi. Qahramon hayotida sodir bo‘layotgan voqealar qadim diniy syujet bilan “qoliplansa”, boshqa tomondan, ramz “qobig‘i”ga ham o‘ralgan bo‘lib, romanni o‘qish va uqish mavjud rivoyat, qissalardan xabardorlik hamda ramzlarning ma’nosini teran anglash uchun jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi. Asarda Odam Ato – Momo Havo – Shaytonga ishora qiluvchi ramziy obrazlar yordamida qahramon hayotida yuz berayotgan voqealarning asosi oshiq – ma’shuq – raqib qolipiga ko‘chirilgan. Muallif hikoya qilish davomida makon va zamon birliklarini qahramonning hayoti va shuurida kechayotgan voqealar bilan parallel qo‘llashi natijasida diniy syujet va real voqelik birgalikda tushunilib ketiladi hamda ularning o‘rtasida taqiq mevasi – ramziy mazmundagi “olma” syujet iplarini bir-biriga bog‘lab turadi. Aytish mumkinki, romanda boshqa ramzlar uchrasa-da, badiiy g‘oya tamoman “olma” ramzi asosiga qurilgan. Muallif barcha syujet liniyalarini taqiq mevasi sanalgan “olma” va u bilan bog‘liq voqealarga olib borib bog‘laydi, shu jihatdan “olma”ni asarning asosiy ramzi deb atash mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Olma – xalq orasida sevgi va farzand ramzi hisoblanadi. Ammo N.Eshonqul olmaning ramziy mazmunini jahon tafakkur mahsuli bilan bog‘laydi. Olmani “taqiq mevasi” deb atar ekan, bu o‘rinda yunon asotirlaridagi Paris eng go‘zal “ma’buda”ga tuhfa etishi kerak bo‘lgan olmani – Troya halokatining dastlabki sababchisi fitnakor olma voqeasini, shuningdek, nasroniylikda u vasvasaga soluvchi, yo‘ldan uruvchi, taqiqlangan meva ramziligini eslash mumkin. Shu munosabat bilan “olma” keng ma’noda foniy dunyo xohishlari timsoli sifatida talqin etiladi. Bu qarashlar Odam Ato va Momo Havo jannatdan uzgan meva olma ekanligi haqidagi rivoyatlardan kelib chiqqan, degan taxminlar ham mavjud. Romanning asosiy g‘oyasi ham “olma” ramzi ma’nosi bilan ochiqilanadi, romanda Sharq-u G‘arbdagi ramziy mazmun omixtalashtiriladi.

Romanda diniy rivoyatdagi Odam Ato, Momo Havo, Shaytonni O., Havo, Sh. singari obrazlarga ko‘chirish orqali ularga boshqa ramziy ma’nolarni ham yuklashga harakat qilingan. Hikoyachi O. – Odam Atoga ishora bo‘lib, u Momo Havoni yo‘ldan ozdirayotgan Iblisning ishiga qarshi chiqib, uni to‘xtatgan qahramon sifatida tasvirlanadi. Teatrda ishlaydigan Havo esa shayton hiylasiga uchgan, ya’ni taqiqlangan mevani yegan, Momo Havo bilan bog‘liq hikoyani necha asrlardan beri takrorlab kelayotgan ayol ramzi. Malak – tamasiz ishq ramzi, Sh. va Ma’bud – Iblis timsoli, Hosila – muhabbatga qurbon inson ramzi.

**Tahlillar va natijalar.** Asarda qo‘llanilgan o‘ziga xos allyuziya (lotincha “allusio” – ishora, hazil; barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora qilishga asoslangan stilistik usul) [4.26] orqali romanning g‘oyaviy-mazmuniy kengligi, muallif aytmoqchi bo‘lgan fikrlar xilma-xilligi ta’minlangan. Jumladan, quyidagi “Xotiram shunchalik g‘ayrioddiy ediki, uxlab yotgan yerimda ham falon asarning falon yerida nechta nuqta, nechta vergul bor deb so‘rashsa, ikkilanmay aytib bera olardim” [2.307] degan parcha bizga Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin”

dostonidagi Farhodni yodga soladi. Qahramonning o‘z xotirasi haqidagi izohi dostonidagi jumlar bilan so‘zma-so‘z mos kelmasa-da, xotirasi o‘tkirligi, barcha kitobni bir o‘qishda yod olishi kabi tafsilotlar uning Farhodga o‘xshatilayotganligidan darak beradi. Shuningdek, qahramon sevgan qizi Malak qarshisidagi holati Majnun holatini esga soladi. Yoki boshqa bir o‘rinda “haydalish kuyi” deya qahramon O. o‘zining holatini “O‘tkan kunlar”dagi Otabek bilan bog‘liq voqeaga o‘xshatadi, yana bir o‘rinda esa allyuziv usul orqali Sharq hikoyatlaridagi madrasada tahsil olib uyga qaytayotgan tolibi ilmni ushlab olgan qaroqchi voqeasini eslatuvchi syujetni sintezlashtiradi: “Uy xo‘jayini uchinchi yil ham ichiga kitob tiqib solinganidan yorilib ketay deb turgan jomadonni ko‘tarib kelganimni ko‘rib, “Kallang ishlamas, jomadonda nima ayb?” deganday irshaydi”. (O‘sha asar, 327-b.) Va eng muhimi, asosiy syujet Odam Ato va Momo Havo voqeasiga asoslanganligi allyuziyani hosil qilgan. Muallif insoniyat va Iblis o‘rtasidagi kurash abadiy ekanligini ta’kidlaydi. Bu orqali Qur’onda keltirilgan voqea – insoniyatning ilk xatosi Odam Ato va Momo Havoning taqiqlangan mevani yeb, Iblisning yo‘liga kirganligiga ishora etiladi. Inson jannatdan quvilgan lahzadayoq uning ko‘nglini iztirob va uyat qoplab olgan. Ana shu iztirob madaniy ongning, barcha adabiyotning, san’atning mavzusidir. Inson qalbidagi asliga qaytish istagini ko‘rsatib bergan va shunga undagan adabiyotgina haqiqiy adabiyotdir. Fojia shundaki, oradan o‘tgan tarixiy jarayonlarda, taloto‘plarda inson o‘zining jannatdan nega quvilganini va bo‘yniga osilgan gunoh yukini, bu gunohning mas’uliyatini unutib qo‘ydi. Shuning uchun ham insoniyat nafsga ruju qo‘yib, o‘sha birinchi gunohini yana davom ettirmoqda. Oqibatda o‘zini muqarrar halokatga boshlab boryapti. Uni bu halokatdan, yozuvchi nazarida, faqat asrlar mobaynida shakllangan an’analar, qadriyatlar tusini olgan madaniyat, madaniy ong va bu gunohdan qaytish istagi qutqara oladi.

Istiqlol davri mahsuli bo‘lgan romanlarga xos xususiyatlardan biri zamon va makon chegaralarining odatdagi shaklga sig‘masligidir. Xususan, “Taqiq mevasi”da ham ilk insonning jannatdan quvilishidan boshlab to bugungi kun voqealarigacha bo‘lgan makon-zamon chegaralari qamrab olinadi. Qahramon azaldan to abad qadar bo‘lgan vaqtda, makonda bemalol harakat qiladi. Muallif adabiy xronotop chegaralarini buzish orqali inson uchun eng zarur xulosalar chiqaradi.

Asar tilida Nazar Eshonqulning nafasi sezilib tursa-da, yozuvchi boshqa asarlarida uchramaydigan poetik ifodalardan foydalanishi istiqlol davri romanlarining rang-barangligiga xizmat qilgan, deyish mumkin. “Taqiq mevasi”ga qadar hech qaysi ramziy romanning butun boshli qismi metafora asosida ramzlashtirib yozilmagan. Jumladan, “Malak Hol” faslining 6-qismi (N.Eshonqul. Taqiq mevasi, 317-323-b.) va “Avval” bo‘limining 5-qismi (O‘sha asar, 345-347-b.) to‘liq “tesha tegmagan” metaforik tasvir bilan yozilgan. Yozuvchi quyidagi qismlarda an’anaviy o‘xshatishlarni cheklab o‘tib, individual ravishda metaforik jumlar tuzganligi va ularni ramzlashtirganligi bu davr romanlari uchun yangicha poetik ifodani yuzaga keltirgan deyish mumkin: “Oy odamlar

yuzida o‘zini ko‘rmoqchi bo‘lib uzoq termiladi”, “yig‘alayotgan bolaning oti – hijron”, “Oy xuddi olmaga o‘xshardi. Uni kim osmonga otib yubordi ekan?”, “Men qish bo‘yi muhabbat pechkasiga isinib yashadim” kabi.

N.Eshonqul asar tilida faqat metaforaga suyanib qolmaydi. Bir bo‘limni metaforik tasvir bilan to‘ldirsa, boshqa bo‘lim xat shaklida (3-bo‘lim, 310-b.), yana bir bo‘lim ertak ko‘rinishida (7-bo‘lim, 323-b.), yana boshqasi esa voqealarning noreal (4-bo‘lim, 312-b.) va realistik (boshqa barcha bo‘limlar) tasviri bilan alohidalik kasb etadi. Demak, istiqlol davri romanlarida silliqqina, bir xil til va ifodadan chiqishga, noodatiy shakllardan foydalanishga urinish kuchaydi, deyishimiz mumkin. Zamonaviy o‘zbek romanshunosligida olamni obrazli badiiy qayta gavdalantirishning G‘arbda rivoj topgan tamoyillarini Sharq-islom an‘analari bilan uyg‘unlashtirish paydo bo‘ldi. Ilohiy tasavvurlarni ifoda qilish va ijodning mutlaq Yaratuvchi bilan munosabatini anglatish imkoni yuzaga keldi. Zero, so‘z san‘atkori ijodiy taxayyul vositasida oddiy ko‘z bilan ko‘rish mumkin bo‘lmagan xilqatlarni ilg‘abgina qolmay, uni ramziy belgilarda aks ettirishga ham erishildi.

Nazar Eshonqul “Go‘ro‘g‘li yoxud hayot suvi” romanida ham Havo obraziga murojaat qiladi. Asar qahramoni N. jamiyat axloqi talab qilgandek emas, balki ko‘ngil tilagi bo‘yicha yashashga intiladi. Shuning uchun axloqsiz juvon Havoga uylanmoqchi bo‘ladi. Romanda o‘z ismiga ega yagona personaj – Havo. N. Havo timsolida unga tiriklik baxsh etuvchi yaratiqni ko‘radi. Yozuvchi N. va Havo bilan bog‘liq lavhalarda Otam Ato va Momo Havo haqidagi qadimgi mif va diniy talqinga intertekstual yondashadi. Erkak va ayol tiriklikning ikki parchasi degan qarashga tayanib, N. o‘z mavjudligining yarmini Havoda ko‘radi. Ma‘lumki, Momo Havo – ayol zoti va moddiy hayot ramzi. U barcha mavjudotning onasi yoki Natura naturans (“tug‘uvchi tabiat”) hisoblanadi [3.99]. Lekin badiiy reallikdagi Havo va ibtidodagi ideal Momo Havo o‘rtasida keskin nomuvofiqlik mavjud. Havo obraziga Momo Havodagi xislatlarning birortasi yuqmaganligi, aksincha, uning butkul teskarisi ekanligi kinoyaviy modusda akslantiriladi. Havo ramzi orqali bu jamiyatda insonning asliyatdan uzoqlashganligi, aksincha, tobora chirkin muhit qa‘riga botib borayotganligi ramziy kinoya orqali ochib beriladi. Shu bilan birga, yozuvchi tasvirlayotgan jamiyatda ayollarning o‘rni va ularga nisbatan munosabatlarning naqadar tubanlashayotganligi masalasini ham Havo obraziga yuklaydi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Nazar Eshonqul zamonaviy o‘zbek adabiyotiga yangilik kiritmoqchi bo‘larkan, qadim rivoyatlardagi kishilarni obraz qilib tanlaydi va undagi syujetni o‘z romanlaridagi obrazlarga evriltirib, bugungi kun kishisi nuqtai nazaridan badiylashtiradi. Xurshid Do‘stmuhammad haqli ta‘kidlaganidek: “Shaxs sifatida o‘zini, davrini, zamonini muttasil mushohada chig‘irig‘idan o‘tkazishga moyillik – intellektual qahramonlar obrazini yaratish Nazar Eshonqul asarlarining o‘ziga xosligini tashkil etadi” [1.32].

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Досмухамедов Х. Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигида бадиий тафаккурнинг янгиланиши (80-йилларнинг иккинчи ярми ва 80-йилларнинг аввалидаги ҳикоялар мисолида): Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1995. – Б. 32.
2. Эшонқул Н. Тақиқ меваси. – Тошкент: Akademnashr, 2022. – Б. 307.
3. Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. – Тошкент: Adabiyot, 2022. – Б. 99.
4. Қуронон Д., Мамажонон З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 26.

